



O'ZBEKISTONDA MAKROIQTISODIY BARQARORLIKNI TA'MINLASHDA VALYUTA KURSINING TA'SIRI

Sobirov Asadbek Sherali o'g'li

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

ORCID: 0009-0002-9771-6138

asadbeksobirov312@gmail.com

Yo'ldoshova Dilrabo Oybek qizi

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

ORCID: 0009-0009-6926-7380

dilraboyoldoshova561@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada O'zbekistonda makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlash jarayonida valyuta kursining roli va ahamiyati o'rganilgan. Asosiy e'tibor milliy valyutaning kurs o'zgarishlari natijasida yuzaga keladigan iqtisodiy oqibatlariga, xususan, inflyatsiya darajasi, tashqi savdo balansi va iqtisodiy o'sishga qaratilgan. Maqolada Markaziy bankning valyuta siyosati, milliy iqtisodiyotda valyuta zaxiralarini boshqarish usullari va tashqi iqtisodiy faoliyatga ta'sir etuvchi omillar tahlil qilingan. Maqolada valyuta kursining o'zgaruvchanligi va uning iqtisodiy barqarorlikka bo'lgan ta'siri xalqaro tajribalar asosida ko'rib chiqilib, O'zbekiston sharoitida qo'llanilishi mumkin bo'lgan samarali mexanizmlar taklif qilingan.

Kalit so'zlar: valyuta siyosati, makroiqtisodiy barqarorlik, inflyatsiya, eksport, import, investitsiyalar.

ВЛИЯНИЕ ВАЛЮТНОГО КУРСА НА ОБЕСПЕЧЕНИЕ МАКРОЭКОНОМИЧЕСКОЙ СТАБИЛЬНОСТИ В УЗБЕКИСТАНЕ

Собиров Асадбек

Ташкентский государственный экономический университет

Йулдашова Дилрабо

Ташкентский государственный экономический университет

Аннотация. В данной статье рассматриваются роль и значение валютного курса в процессе обеспечения макроэкономической стабильности в Узбекистане. Основное внимание уделяется экономическим последствиям изменения курса национальной валюты, в частности, на уровень инфляции, внешнеторговый баланс и экономический рост. В статье анализируется валютная политика Центрального банка, методы управления валютными резервами в национальной экономике, факторы, влияющие на внешнеэкономическую деятельность. В статье на основе международного опыта рассматривается волатильность обменного курса и ее влияние на экономическую стабильность, а также предлагаются эффективные механизмы, которые можно использовать в условиях Узбекистана.

Ключевые слова: валютная политика, макроэкономическая стабильность, инфляция, экспорт, импорт, инвестиции.

THE INFLUENCE OF THE EXCHANGE RATE ON ENSURING MACROECONOMIC STABILITY IN UZBEKISTAN

Sobirov Asadbek

Tashkent State University of Economics

Yuldoshova Dilrabo

Tashkent State University of Economics

Abstract. *This article examines the role and significance of the exchange rate in ensuring macroeconomic stability in Uzbekistan. The focus is on the economic consequences arising from changes in the national currency's exchange rate, particularly on inflation levels, the balance of foreign trade, and economic growth. The study analyzes the Central Bank's currency policy, methods of managing foreign exchange reserves in the national economy, and factors affecting external economic activities. The article reviews the volatility of the exchange rate and its impact on economic stability based on international experiences, offering effective mechanisms that can be applied in the context of Uzbekistan. This article holds theoretical and practical significance for specialists, researchers, and public administration representatives dealing with currency policy and macroeconomic stability.*

Keywords: *exchange rate, macroeconomic stability, inflation, export, import, investments.*

Kirish.

O'zbekiston iqtisodiyoti so'nggi yillarda izchil o'zgarish va rivojlanish jarayonlarini boshdan kechirmoqda. Ushbu jarayonda makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlash muhim strategik yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Milliy iqtisodiyotning ichki va tashqi barqarorligini mustahkamlashda valyuta kursi asosiy omillardan biri sifatida maydonga chiqmoqda. Valyuta kursining dinamikasi savdo balansidan tortib inflyatsiyaga, investitsiyalarga va aholining daromadlariga qadar keng ko'lamli iqtisodiy jarayonlarga ta'sir ko'rsatadi. 2017-yilda amalga oshirilgan valyuta liberallasuvi O'zbekiston iqtisodiyotini jahon iqtisodiyoti bilan integratsiyalashuviga yo'l ochib berdi. Islohotlarning jadallashuvi natijasida valyuta kursining bozor mexanizmlari asosida shakllanishi eksport salohiyatining oshishi, import qaramligining kamayishi va iqtisodiy raqobatbardoshlikni kuchaytirish uchun imkoniyat yaratdi. Shu bilan birga, valyuta kursining tebranishlari makroiqtisodiy barqarorlikka salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkinligi ham kuzatildi, jumladan inflyatsiya sur'atining oshishi va tashqi qarz xizmatlariga bo'lgan xarajatlarning ortishi kabi muammolar paydo bo'ldi.

O'zbekiston Respublikasining Taraqqiyot Strategiyasida makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlash va valyuta kursining ahamiyati katta o'rin tutadi. Ushbu strategiyaning dolzarbligi mamlakat iqtisodiyotini barqarorlashtirish, tashqi shoklarga qarshi chidamlilikni oshirish va ijtimoiy farovonlikni ta'minlash uchun zarur bo'lgan chora-tadbirlar bilan bog'liqdir.

O'zbekistonning 2021-2030 yillarga mo'ljallangan Taraqqiyot Strategiyasi mamlakatning uzoq muddatli iqtisodiy o'sishini ta'minlashga qaratilgan. Asosiy yo'nalishlari iqtisodiy o'sish va investitsiyalarni jalb qilish, ijtimoiy barqarorlik va makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlashga qaratilgan.

Mazkur maqolada O'zbekistonda makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlashda valyuta kursining o'rnini, uning eksport va importga ta'siri, investitsion muhit va inflyatsiya ko'rsatkichlariga bo'lgan ta'siri tahlil qilinadi. Shu bilan birga, mavjud muammolar va ularni hal etish yo'llari haqida fikr yuritiladi. Maqola davomida valyuta kursining iqtisodiy barqarorlikka ta'siri haqidagi dalillar ilmiy manbalar va rasmiy statistik ma'lumotlarga asoslangan holda yoritiladi.

Adabiyotlar sharhi.

Valyuta kursi va makroiqtisodiy barqarorlik o'rtasidagi bog'liqlikni o'rganish, O'zbekistonning iqtisodiy siyosatini shakllantirishda muhim ahamiyatga ega. Valyuta kursining o'zgaruvchanligi inflyatsiya darajasini oshirishi va iqtisodiy o'sishni sekinlashtirishi mumkin (Xodjaev va Tashpulatov, 2010). Shu sababli, valyuta kursining boshqarilishi inflyatsiyani nazorat qilish va investitsiyalarni jalb qilishda muhim ahamiyatga ega ekanligi ta'kidlanadi (Tursunov va Kholikov, 2016) O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi, ilmiy adabiyotlar va rasmiy manbalar, valyuta kursining iqtisodiy barqarorlikka ta'sirini chuqur tahlil qilish imkoniyatini yaratadi.

Valyuta kursining barqarorligi iqtisodiy o'sish, inflyatsiya, tashqi savdo va investitsiyalarga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Xalqaro tashkilotlar, masalan, Jahon Banki va Xalqaro Valyuta Fondi, O'zbekistonning iqtisodiy holati va valyuta kursi masalalarida muhim tahlillarni taqdim etadi. Global iqtisodiy sharoitlar, masalan, neft narxlarining o'zgarishi yoki boshqa mamlakatlarning iqtisodiy siyosati O'zbekistonning valyuta kursi va umumiy iqtisodiy holatiga ta'sir ko'rsatishi mumkin (Karimov, 2018). O'zbekiston iqtisodiyotidagi valyuta kursining global moliyaviy bozorlar bilan bog'liqligi ham iqtisodchi olimlar tomonidan tahlil etilgan. U global iqtisodiy holatlar, masalan, valyutalarning dunyo bo'yicha o'zgarishi O'zbekistonning ichki iqtisodiyotiga ta'sir qiladi (Rahmonov, 2019). Bundan tashqari, O'zbekistonning valyuta kursi siyosati va uning eksport-import balansiga ta'siri ham ko'rib chiqildi (Tursunov, 2011). U, shuningdek, valyuta kursining o'zgarishlari eksportchilarga foyda keltirishi, ammo import qiluvchilarga iqtisodiy yukni oshirishi mumkinligini ko'rsatgan. Valyuta kursining ichki bozor narxlari va ishbilarmonlik muhitiga ta'siri barqaror valyuta siyosatining iqtisodiy o'sish va investitsiyalarni jalb qilish uchun muhimligini ham ta'kidlash lozim (Tursunov va Kholikov, 2022). O'zbekiston Markaziy Banki va Moliya Vazirligi tomonidan amalga oshirilgan siyosatlar, valyuta kursining barqarorligini ta'minlashda muhim rol o'ynaydi. Qonunlar va normativ hujjatlar valyuta kursining nazoratini ta'minlashda zarur huquqiy asos yaratadi.

Shamsiyevning fikriga ko'ra, 2017-yildan boshlab O'zbekistonning milliy valyutasi — so'mning bozor kursiga o'tishi iqtisodiy barqarorlikka ijobiy ta'sir ko'rsatdi. Biroq, valyuta kursining keskin o'zgarishi va tashqi iqtisodiy sharoitlar, masalan, pandemiyaning ta'siri inflyatsiya bosimini kuchaytirgan (2020).

Shuni ham ta'kidlash joizki, valyuta kursining barqarorligi iqtisodiy islohotlarni yanada chuqurlashtirish va xalqaro savdoni rivojlantirish uchun zaruriy omil sifatida ko'riladi (Mirzaev 2021).

Umuman olganda, valyuta kursining o'zgarishi O'zbekiston iqtisodiyotining barqarorligi va rivojlanishiga katta ta'sir ko'rsatadi. Iqtisodiy siyosat va makroiqtisodiy tahlillar bu jarayonni boshqarish va optimallashtirishda asosiy omil bo'ladi.

Tadqiqot metodologiyasi.

Maqolada O'zbekistonning so'nggi yillardagi ishsizlik darajasi va iqtisodiy o'sish bo'yicha statistik ma'lumotlar to'plamasi amalga oshiriladi. Bu ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi Statistika qo'mitasi, Iqtisodiyot Vazirligi, va boshqa muvofiqlashtirilgan tashkilotlardan olingan. Tadqiqot jarayonida mavzuga oid statistik ma'lumotlar va nazariyalarni o'rganishda tahlilning iqtisodiy-statistik tahlil, tanlanma kuzatish hamda tajriba kabi usullardan foydalanilgan. Mavzuni yoritishda ilmiy-amaliy hamda xalqaro anjuman to'plamlari, shuningdek, internet ma'lumotlaridan foydalanildi.

Tahlillar va natijalar muhokamasi.


Valyuta kursi mamlakat iqtisodiyotining barqarorligi uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Bu ko'rsatkichning dinamikasi mamlakatning ichki va tashqi iqtisodiy muhitiga ta'sir

ko'rsatadi. Valyuta kursi milliy valyutaning xorijiy valyutalarga nisbatan qiymatini ifodalaydi va uning o'zgarishi turli iqtisodiy omillar bilan chambarchas bog'liqdir.

Birinchiidan, valyuta kursining o'zgarishi inflatsiyaga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Agar milliy valyuta qadrsizlansa, xorijdan import qilinadigan mahsulotlarning narxi oshadi. Bu esa ichki bozorga import qilinadigan mahsulotlarning umumiy narxlar darajasini oshiradi, natijada inflatsiya kuchayadi. Shu bilan birga, valyutaning qadrsizlanishi eksport qilinadigan mahsulotlar narxini xorijiy valyutalarda nisbatan arzonlashtiradi, bu esa eksport hajmining oshishiga olib kelishi mumkin.

Ikkinchiidan, valyuta kursi mamlakatning tashqi savdo balansi uchun hal qiluvchi ahamiyatga ega. Milliy valyutaning qadrsizlanishi eksport qiluvchilar uchun qulay sharoit yaratadi, chunki ularning mahsulotlari xorijiy bozorlarda raqobatbardosh bo'ladi. Biroq, import qilinadigan tovarlarning narxi oshadi, bu esa iste'molchilar uchun xarajatlarni ko'paytiradi. Shu sababli, valyuta kursining o'zgarishi iqtisodiyotning turli sektorlari uchun turlicha ta'sir ko'rsatadi.

Uchinchiidan, valyuta kursining dinamikasi tashqi qarzga bo'lgan yukni oshirishi yoki kamaytirishi mumkin. Milliy valyutaning qadrsizlanishi xorijiy valyutada olingan qarzlarning milliy valyutadagi qiymatini oshiradi, bu esa davlat va xususiy sektor uchun qarz xizmatini qiyinlashtiradi. Shu bilan birga, qarz yukining oshishi iqtisodiy barqarorlikka salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. So'nggi yillarda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan qabul qilingan qarorlar valyuta bozorini liberallashtirishga va iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashga qaratilgan.



1-rasm Valyuta kursi va Makroiqtisodiy indikatorlar

Valyuta kursi yil sayin oshib, 2019-yildagi 9,507 so'mdan 2023-yilda 12,875 so'mga yetgan. Bu so'mning AQSh dollariga nisbatan qadrsizlanishini anglatadi. Bu holat eksport qiluvchilar uchun foydali bo'lsada, import qiluvchilar uchun xarajatlarning oshishiga sabab bo'ladi.

YaIM 2019-yildagi yuqori darajadan (5,5%) 2020-yilda pandemiya ta'sirida 1,6% gacha pasaydi. Keyinchalik iqtisodiy islohotlar va barqarorlik choralari natijasida 2021-yilda 7,4% ga ko'tarilgan. Natijada, valyuta kursining barqarorligi iqtisodiy o'sishga ijobiy ta'sir ko'rsatgan va eksportga yo'naltirilgan tarmoqlarning rivojlanishi YAIM o'sishini qo'llab-quvvatlagan.

2019-yilda yuqori darajadagi 15,2% inflyatsiya 2023-yilda 8,8% ga tushgan. Biroq, 2022-yilda o'sish (12,3%) kuzatilishi natijasida valyuta kursining qadrsizlanishi import tovarlarining narxini oshirib, inflyatsiyani keltirib chiqargan. 2023-yilda inflyatsiyani pasaytirish bo'yicha samarali siyosat amalga oshirilgan.

Har yili tashqi savdo balansini manfiy ko'rsatkichga ega bo'lgan. 2023-yilda salbiy balans biroz yaxshilanib, \$6,0 milliardga kamaygan. Shu sababli eksportning o'sishi tashqi savdo balansini bir oz yaxshilagan, ammo import hajmining yuqoriligi sabab salbiy ko'rsatkich saqlanib qolgan hamda Valyuta kursining qadrsizlanishi ichki ishlab chiqarishni rivojlantirishni rag'batlantirgan. Umumiy qilib aytadigan bo'lsak, valyuta kursining o'zgarishi makroiqtisodiy indikatorlarga bevosita ta'sir qiladi: inflyatsiyani oshiradi, YAIM o'sish sur'atiga ta'sir qiladi va savdo balansidagi salbiy tendensiyalarni keltirib chiqaradi.

Muhokama. 2017-yil 2-sentabrda "Valyuta siyosatini liberallashtirish bo'yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar to'g'risida"gi farmon qabul qilindi. Ushbu farmon orqali valyuta bozorini erkinlashtirish va milliy valyutaning konvertatsiyasini ta'minlashga asos solindi. Mazkur chora-tadbirlar iqtisodiyotni yanada ochiqroq qilishga va xorijiy investitsiyalarni jalb etishga xizmat qildi. 2019-yilda qabul qilingan "Valyutani tartibga solish to'g'risida"gi qonun esa valyutaga oid davlat siyosatini yanada mustahkamlashga qaratilgan edi. Ushbu qonun doirasida valyuta operatsiyalari erkinligi ta'minlandi va iqtisodiy subyektlarga keng imkoniyatlar yaratildi. Natijada, valyuta bozoridagi tartib-qoidalar ancha takomillashtirildi va milliy iqtisodiyotning barqarorligini mustahkamlash uchun shart-sharoitlar yaratildi. Valyuta kursining makroiqtisodiy barqarorlikka ta'siri sezilarli darajada bo'lib, uning dinamikasi iqtisodiy ko'rsatkichlarga turlicha ta'sir qiladi. Ushbu ta'sirni samarali boshqarish orqali iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash va uzoq muddatli rivojlanishga erishish mumkin. Shu sababli, valyuta kursini nazorat qilish va tartibga solish davlat iqtisodiy siyosatining muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

Valyuta kursining o'zgarishi eksport va import hajmiga sezilarli darajada ta'sir qiladi. Past valyuta kursi eksportni rag'batlantiradi, ammo import xarajatlarini oshiradi. Shu sababli, O'zbekistonning chet el valyutasi bozoridagi siyosati eksport va import o'rtasidagi muvozanatni saqlashga qaratilgan. Eksport va import balansini iqtisodiyotning tashqi savdo faoliyatini aks ettiruvchi muhim ko'rsatkich bo'lib, u valyuta kursining dinamikasiga sezilarli ta'sir qiladi. Eksport – mamlakatda ishlab chiqarilgan mahsulot va xizmatlarning chet elga sotilishi, import esa xorijiy mahsulot va xizmatlarning milliy bozorga kiritilishidir. Ushbu jarayonlarning muvozanati tashqi savdo balansini shakllantiradi.


Valyuta kursining eksport va import balansiga ta'siri bir nechta asosiy omillar orqali amalga oshadi. Birinchidan, milliy valyutaning qadrsizlanishi (devalvatsiya) eksport qiluvchilar uchun qulay sharoit yaratadi. Milliy mahsulotlar xorijiy bozorlarda arzonroq bo'lib, raqobatbardoshlik oshadi. Natijada, eksport hajmi o'sishi mumkin. Shu bilan birga, import qilinadigan mahsulotlarning narxi oshib, import hajmi qisqaradi. Bu jarayon tashqi savdo balansining yaxshilanishiga olib keladi.

Ikkinchidan, milliy valyutaning qadri oshganda (revalvatsiya), aksincha, eksport mahsulotlari xorijiy bozorlarda qimmatroq bo'lib, raqobatbardoshligini yo'qotadi. Natijada, eksport hajmi qisqarishi mumkin. Biroq, import mahsulotlari arzonlashadi va iste'molchilar tomonidan ko'proq talab qilinadi. Bu esa tashqi savdo balansining salbiylashishiga olib kelishi mumkin.

Valyuta kursining eksport va import balansiga ta'siri faqat narx omillari bilan cheklanmaydi. Bundan tashqari, iqtisodiy siyosat, ishlab chiqarish quvvatlari, logistika tizimi va xalqaro talab kabi omillar ham muhim ahamiyat kasb etadi. Misol uchun, 2017-yilda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan qabul qilingan valyuta siyosatini liberallashtirish choralari milliy valyutaning real qiymatini belgilashga va eksport salohiyatini oshirishga xizmat qilgan edi.

Shuningdek, eksport va import balansining barqarorligini ta'minlash uchun diversifikatsiya siyosati muhim rol o'ynaydi. Bu siyosat yangi bozorlarga chiqish, turli sohalarda eksport salohiyatini oshirish va ichki ishlab chiqarishni rivojlantirishni o'z ichiga oladi. Importning yuqori hajmini kamaytirish uchun milliy ishlab chiqarishni qo'llab-quvvatlash va strategik tovarlarni mahalliyashtirish zarur.

Makroiqtisodiy barqarorlik indikatorlari iqtisodiy rivojlanish va barqarorlikni baholash uchun asosiy ko'rsatkichlar hisoblanadi. 2018-2022-yillar davomida ushbu indikatorlarning asosiy ko'rsatkichlari va ularning dinamikasi yoritilgan.



2-rasm. Makroiqtisodiy Barqarorlik indikatorlarining o'zgarishi

Yalpi ichki mahsulot (YaIM) o'sish sur'ati 2018-yilda 5,1% ni tashkil etgan bo'lsa, 2019-yilda 5,6% gacha oshdi. 2020-yilda pandemiya ta'siri tufayli 1,6% gacha pasaydi. 2021-yilda iqtisodiy tiklanish natijasida 6,2% o'sish kuzatilib, 2022-yilda 5,9% ni tashkil etdi.

Inflatsiya darajasi 2018-yilda 14,3% bo'lib, 2019-yilda 15,2% gacha oshgan. 2020-yilda inflatsiya darajasi 11,1% gacha pasaygan bo'lsa, 2021-yilda 10% ga tushgan, 2022-yilda esa 12,3% gacha ko'tarilgan.

Ishsizlik darajasi 2018-yilda 9,1% ni tashkil etgan bo'lsa, 2019-yilda 9% gacha pasaygan. 2020-yilda pandemiya sababli 10,5% gacha oshgan, 2021-yilda 9,8% gacha pasaygan va 2022-yilda 9,4% ni tashkil etgan.

Ushbu ko'rsatkichlarning dinamikasi makroiqtisodiy barqarorlikka ta'sir qiluvchi omillarni, jumladan pandemiya, inflatsiya va iqtisodiy tiklanish jarayonlarini ochib beradi.

Makroiqtisodiy barqarorlik indikatorlari mamlakat iqtisodiyoti rivojlanishini o'lchash uchun muhim ahamiyatga ega. YaIMning o'sishi iqtisodiy tiklanish va rivojlanishni aks ettirsa, inflatsiya va ishsizlik darajasi iqtisodiy barqarorlikka tahdid soluvchi asosiy omillar sifatida e'tiborga olinadi. Ushbu indikatorlarni doimiy kuzatib borish va ularni barqarorlashtirish iqtisodiy siyosatning muhim yo'nalishi hisoblanadi.

Valyuta kursiga ta'sir ko'rsatuvchi ichki omillarga mamlakatda amalga oshirilayotgan pul-kredit siyosati, aholi va tadbirkorlarning valyuta kursi o'zgarishi va inflatsiya bo'yicha kutilmalari kiradi. Xususan, Markaziy bank tegishli pul-kredit siyosatini amalga oshirish orqali pul massasi yuqori sur'atlarda o'sishining oldini olish hamda milliy valyutadagi aktivlarning jozibadorligini oshirish yo'li bilan chet el valyutasiga bo'lgan talab va taklif darajasiga ta'sir ko'rsatishi mumkin. Bunda amaldagi qayta moliyalash stavkasi bo'yicha bank tizimiga likvidlilik berish yoki uni jalb qilish, tijorat banklari uchun majburiy rezerv talablarini o'zgartirish va boshqa choralarni qo'llagan holda pul-kredit siyosati instrumentlaridan faol foydalaniladi. Monetar siyosat, shu jumladan, valyuta kursi siyosatining shaffofligini ta'minlash hamda aholining bu siyosatlardan kutayotgan o'zgarishlarni o'rganish maqsadida Markaziy bank jamoatchilik bilan aloqalarni takomillashtirishga alohida e'tibor qaratadi.

Ushbu maqsadlarga erishish uchun davriy ravishda pul-kredit sohasida amalga oshirilayotgan va rejalashtirilayotgan chora-tadbirlarni tavsiflovchi tahliliy ma'lumotlar ommaviy axborot vositalarida yoritib boriladi. Xorijiy valyutaga bo'lgan talab va taklifga hamda valyuta kursi o'zgarishiga ta'sir etuvchi tashqi omillarga O'zbekistonning asosiy savdo hamkorlari bo'lgan mamlakatlardagi iqtisodiy vaziyat va ularda amalga oshirilayotgan pul-kredit, shu jumladan kurs siyosati, tashqi bozorlardagi kon'yunktura hamda respublikaga jalb qilinayotgan xorijiy investitsiyalar va kreditlar, tashqi qarzning qaytarilishi borasida bo'layotgan o'zgarishlar va ularning dinamikasi kiradi. Ushbu omillarning barchasi mamlakat to'lov balansiga, ya'ni respublikaga valyuta mablag'larining kirib kelishi va undan chiqib ketishi hajmlariga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Valyuta kursining bozor mexanizmlari asosida shakllanishi va uning tashqi iqtisodiy sharoitlarga mos ravishda o'zgarib borish xorijiy valyutaga bo'lgan talab va taklifni muvozanatlashtirish imkonini beradi.

Xulosa va takliflar.

Xulosa qilib aytganda, aynan bozor mexanizmlari asosida shakllanadigan valyuta kursi tashqi sharoitlar o'zgarishiga tez moslashish va uning salbiy oqibatlarini minimallashtirish orqali "avtomatik stabilizator" funksiyasini bajaradi. Tashqi omillarning ta'siri kuchaygan sharoitda ayirboshlash kursini barqarorlashtirish bo'yicha pul-kredit siyosati imkoniyatlarining cheklanganligini inobatga olgan holda Markaziy bankning asosiy e'tibori valyuta kursi o'zgarishlarining salbiy oqibatlarini yumshatishga, ya'ni ichki narxlar oshishining oldini olishga qaratiladi. Xususan, devalvatsiya jarayonlari yuzaga kelganda Markaziy bankning foiz siyosati monetar omillarning inflatsiyaga ta'sirini kamaytirish, so'mning xarid qobiliyatini saqlab qolish va milliy valyutadagi moliyaviy aktivlarning (aholi va xo'jalik yurituvchi subyektlarning jamg'armalari) qadrsizlanishiga yo'l qo'ymaslikka qaratiladi.

Adabiyotlar /Jumepamypa/Reference:

Gregory Mankiw N. "Macroeconomics" (2021), "WORTH" publishers ninth edition.

Karimov X., (2018) "O'zbekiston iqtisodiyoti va valyuta kursining global iqtisodiyotga ta'siri".

Mirzaev N., (2021) "Valyuta kursining barqarorligi va iqtisodiy islohotlar".

Rahmonov D. (2019), "O'zbekistonning valyuta kursi va uning global moliyaviy bozorlar bilan bog'liqligi".

Romer D. (2022) "Advanced Macroeconomics", "McGraw-Hill Education" publisher fifth edition.

Shamsiyev A (2017) "O'zbekistonning milliy valyutasi — so'mning bozor kursiga o'tishi va iqtisodiy barqarorlik".

Tursunov B., (2011) "O'zbekistonning valyuta kursi siyosati va eksport-import balansiga ta'siri".

Tursunov T. va Kholikov A., (2022). "Valyuta kursining ichki bozor narxlari va ishbilarmonlik muhitiga ta'siri".

Tursunov T., A.Kholikov, (2016) "Valyuta kursi va uning iqtisodiyotni boshqarishdagi roli".

Xodjaev I. va Tashpulatov N. (2010). "Valyuta kursi va uning iqtisodiyotdagi roli".